



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **842 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,6 f.p. ko'paygan**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **970 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-mart oyida bo'yicha viloyatda 1083 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,9 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52,8 % ga kamaygan hamda ular ning soni 113 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 842 ta (5,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14561 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,0 foiz), Denov (12,1 foiz), Jarqo'rg'on (7,9 foiz) va Termiz (7,0 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	15387	100	14561	100
Termiz sh.	2996	19,5	2911	20,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	643	4,2	587	4,0
Angor	751	4,9	720	5,0
Boysun	742	4,8	710	4,9
Muzrabot	630	4,1	587	4,0
Denov	1847	12,0	1768	12,1
Jarqo'rg'on	1194	7,7	1146	7,9
Qumqo'rg'on	971	6,3	894	6,1
Qiziriq	792	5,1	737	5,1
Sariosiyo	893	5,8	835	5,7
Termiz	1044	6,8	1018	7,0
Uzun	906	5,9	801	5,5
Sherobod	995	6,5	952	6,5
Sho'rchi	983	6,4	895	6,2


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,6 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 foizga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **23,7 %** savdoda, **11,8 %** sanoatda, **11,1 %** qurilishda, **7,3 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **7,0 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **4,7 %** tashish va saqlash, **1,8 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, **1,5 %** axborot va aloqa va **31,1 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 1083 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Denov (157 ta), Termiz shahrida (148 ta), Sho'rchi (115 ta) va Qumqo'rg'on tumanlarida (87 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (44 ta), Boysun (47 ta), Uzun (48 ta), Termiz (49 ta) hamda Muzrabot (51 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarida (284 ta), savdoda (245 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (153 ta), sanoatda (139 ta), qurilishda (112 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (75) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (7 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta) va tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	774	1083
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	115	153
Sanoat	134	139
Qurilish	86	112
Savdo	190	245
Tashish va saqlash	56	36
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	90	75
Axborot va aloqa	8	7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	32
Boshqa turlari	86	284

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,8 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,5 f.p) kamayganligi, buning natijasida qurilishda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), sanoatda (+0,3 f.p.), tashish va saqlashda (+0,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p.dan) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,7 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-	1,8	3,3	-1,5
Savdo	23,7	25,5	-1,8
Axborot va aloqa	1,5	1,5	0
Sanoat	11,8	11,5	0,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,0	6,7	0,3
Qurilish	11,1	10,2	0,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	6,6	0,7
Tashish va saqlash	4,7	4,3	0,4
Boshqa turlari	31,1	30,4	0,7

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 11257 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5270 ta, oilaviy korxonalar – 666 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4903 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 24 tani va boshqalar 988 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 71 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga yoki 19,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 38 tasi qo'shma korxonalar, 33 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar 26 ta (36,6 %), Jarqo'rg'on tumani 8 ta (11,3 %), Qumqo'rg'on, Termiz tumani, Sariosiyo, Sherobod va Denov tumanlarida 5 ta dan (7,0 % dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Sho'rchi, Oltinsoy va Angor tumanlarida 3 ta dan (4,3 % dan), Muzrabot tumani 2 ta (2,8 %) va Uzun tumanida 1 ta (1,4 % dan) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 33 ta (46,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 14 ta (19,7 %), savdoda 11 ta (15,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (7,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 ta (5,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,4 %), axborot va aloqada 1 ta (1,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,4 %) va qurilishda 1 ta (1,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 12 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 6,0 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Qozogiston Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi -1 ta, Tojikiston Respublikasi - 1 ta va Koreya Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-mart holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7 ta, savdoda 4 ta, sanoatda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11163 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 10,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2473 tasi (22,2%) Termitz shahriga, 1387 tasi (12,4%) Denov, 899 tasi (8,1%) Jarqo'rg'on hamda 869 tasi (7,8%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11163 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3431 tasi (30,7 %) – savdoda, 1692 tasi (15,2 %) - sanoatda, 1610 tasi (14,4 %) - qurilishda, 1308 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1061 tasi (9,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 973 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 681 tasi (6,1 %) - tashish va saqlashda, 212 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 195 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 959 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Denov (146 ta), Termiz sh.(139 ta), Sho'rchi (114 ta) va Angor tumanlarida (72 ta) tashkil etilgan. Eng kam Termiz (47 ta), Sariosiyo va Boysun (43 tadan), Uzun (35 ta) hamda Oltinsoy (25 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (245 ta), boshqa turlarida (162 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (153 ta), sanoatda (138 ta) va qurilishda (111 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda hamda tashish va saqlashda (32 tadan), axborot va aloqada (7 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 715 tani tashkil etib, ulardan 666 tasi yoki 93,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **29,4** %ga oshganligini ta`kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o`shish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke-simida qaralganda oilaviy korxonalarining 35,4 % yoki 253 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,6 % yoki 176 tasi sanoat, 19,0 % yoki 136 tasi savdo, 13,0 % yoki 93 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,1 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 0,6 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, hamda 4,1 % yoki 29 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul

O.Raxmanov



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan